



TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-22, (October) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

G'ULOMOV Tohirjon

Namangan davlat universiteti

II bosqich magistranti

FARG'ONA VODIYSI QIPCHOQLARI XO'JALIGI VA UNING ETNIK XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysida muhim etnografik guruhlardan biri bo'lgan qipchoqlarning an'anaviy xo'jaligi, uning transformatsiyalashuv jarayoni, chorvachilik xo'jaligiga ta'sir ko'rsatgan omillar tarixiy va etnografik materiallar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, qipchoqlar, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, xo'jalik-madaniy tiplar, o'troq aholi, ko'chmanchilar, gilam.

Ma'lumki, o'zbek xalqining qadimiy ajdodlari uzoq davrlardan boshlab tabiiy sharoitga mos holda, o'ziga xos xo'jalik-madaniy tiplarni yaratgan [1, B.3-17].

Xo'jalik-madaniy tiplarning dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik kabi yo'nalishlari o'z navbatida tevarak-atrofdagi tabiiy muhit bilangina emas, balki muayyan etnoslarning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji darajasi bilan ham belgilanadi.

Bu holat esa mahalliy etnoslarning shakllanish jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Chunki tabiiy sharoitning ta'siri belgilarini etnik madaniyatning barcha sohalarida - ishlab chiqarish vositalaridan, ayniqsa mehnat qurollaridan boshlab maishiy turmush buyumlari va, hatto, etnoslarning nomlarigacha sezish mumkin. Masalan, tabiiy iqlimga qarab odamlarning turar joylari va uy-joy qurilishi, kiyim-kechaklari va ro'zg'or buyumlari, qishloq xo'jalik ekinlarining turlari, aloqa vositalari xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Hammaga a'yonki, turli xalqlarning turmush tarzi va madaniyati xarakteri, milliy histuyg'ulari ham mahalliy tuproq va suv resurslariga, tabiiy o'simliklar, boshqa yer usti hamda yer osti boyliklariga qarab shakllanadi. Albatta, xo'jalik-madaniy tiplarning yo'nalishlari o'z navbatida tevarak-atrofdagi tabiiy muhit bilangina emas, balki muayyan etnoslarning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji darajasi bilan ham belgilanadi.

Shu o'rinda o'troq aholi bilan ko'chmanchi chorvador aholi o'rtasidagi xo'jalik aloqalari tarixiy taraqqiyotning ilk bosqichlaridan boshlanganligiga e'tibor qaratish joiz. Etnolog olim U.S. Abdullayev to'g'ri ta'kidlaganidek, "chorvador xo'jalik bilan dehqon va hunarmand xo'jalik o'zaro bog'lanmasdan alohida-alohida tarzda mavjud bo'lmasdi... Bir so'z bilan aytganda, o'troq dehqon, hunarmand aholi va ko'chmanchi chorvador qabilalar o'rtasida mahsulot ayirboshlash qadimdan oq yaxshi yo'lga qo'yilgan, savdo munosabatlari rivojlanib borgan" [2, B.27].

Bu kabi ikki xil xo'jalik tipining o'zaro munosabati, birinchidan, etnik muloqotlarni yuzaga keltirib, integratsiya, konsolidatsiya va assimilyasiya jarayonlarini tezlashtirdi, ikkinchidan esa, o'trok, yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi aholi xo'jaligining ma'lum bir yo'nalishga ixtisoslashuvini, maishiy turmush va an'analarning barqarorligini ta'minlaydi.

Masalan, Farg'ona vodiysida ilk o'rta asrlardan XX asr boshlarigacha kelgan har qanday etnoslar, ularning turmush tarzi va madaniyati xarakteri qanday bo'lishidan qat'i nazar tezda mahalliy madaniyat, xo'jalik an'analari ta'sirida o'ziga xoslik kasb etadi.

O'zbekistonning janubiy mintaqalarida esa qarluq, turk kabi etnografik guruhlar o'rta asrlardan joylashib qolganiga qaramay, XX asr boshlarigacha chorvachilik an'analarini saqlab qoldi. Aksincha, Farg'ona vodiysida qipchoq, qirg'iz, qoraqalpoq kabi chorvador etnoslarning turmush tarzida esa ushbu davrda o'troqlashuv jarayonini kuzatish mumkin.

Farg'ona vodiysining qulay geografik sharoiti nafaqat o'lkaning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini ta'minlab berdi, balki turli etnik komponentlar oqimining bu yerga kelib joylashib qolishida ham ma'lum darajada katta rol o'ynadi. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysining tabiiy izolyasiyalanganligi o'lkaning bir qadar osoyishta bo'lishi, hatto ba'zida siyosiy voqealar ta'siridan tashqarida qolishiga ham imkon bergan [3, B.4].

Jumladan, o'zbek xalqini shakllanishida muhim rol o'ynagan etnografik guruhlar qipchoqlar turkiy tilli etnoslardan biri sifatida uzoq davom etgan etnik va etnoslararo jarayonlarda o'zbek, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq xalqlarning shakllanishida faol ishtirok etgan. Kelib chiqishiga ko'ra, qipchoqlar Janubiy Sibir va Shimoliy Qozog'iston dashtlarida qadimgi va o'rta asrlardagi qabilalarga borib taqaladi.

XX asrga qadar qipchoqlar O'zbekistonning Farg'ona vodiysi va Zarafshon vohasi hududlarida uyushgan holda joylashgan edi [4, B.139].

Qipchoqlarning Farg'ona vodiysi hududiga kelib joylashuvi jarayoni bir necha asrni o'z ichiga oladi. Farg'ona vodiysiga qipchoqlarning migratsiyasi haqida turli fikrlar mavjud. Qipchoqlarning ma'lum bir guruhlar mintaqaga XIII asrda mo'g'ullar bosqini davrida kirib kelib, o'rnashib, keyinchalik ko'chmanchi va mahalliy aholi bilan aralashib, singib ketgan.

Tadqiqotchi B. Vahobovning qayd etishicha, Farg'ona vodiysi hududidagi qipchoqlarning asosiy qismi XIX asr boshlaridayoq o'troq turmush tarziga o'tib, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Biroq, ularning aksar qismi XX asr boshlariga qadar yarimo'troq holda yashab, chorvachilikni dehqonchilik bilan qo'shib olib borgan. XIX asrning ikkinchi yarmida o'troq qipchoqlar soni keskin ko'paygan. Vodiy qipchoqlarining turmush tarzidagi bunday o'zgarish, avvalo, iqtisodiy omillar ta'sirida yuz borgan. Chunki bu davrga kelib vodiya paxtachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaralib, chorvador xalqlar tomonidan yaylov sifatida foydalanib kelingan yerlar dehqonchilik uchun jadal o'zlashtirila boshlangan. Bu esa o'z o'rnida vodiya yarimo'troq aholisi, xususan, qipchoqlar chorvasining soni keskin kamayib ketishiga olib kelgan. Vodiyning shimoliy tog'oldi zonalarida joylashgan qipchoq urug'lari esa chorva mollarini boqish bilan bir vaqtda asosan lalmi yerlarda dehqonchilik qilgan [5, B.50].

Tabiiyki, o'troqlashuv jarayoni qipchoklar hayotida muhim o'rin tutgan. Dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanish ularning taraqqiyotga erishuvida asosiy omil vazifasini o'tagan [6, B.16].

O'rganilayotgan davrga kelib qipchoqlarning ham asosiy qismi o'troq turmush tarziga hamda dehqonchilik bilan shug'ullanishga o'tib bo'lgan edi. Biroq ularning katta bir qismi to XX asr boshlariga qadar yarim o'troq holda yashab, o'zlari uchun an'anviy bo'lgan chorvachilikni dehqonchilik bilan qo'shib olib borar edilar. Ayni vaqtda ushbu yarim o'troq qipchoqlar o'zlarining tuzilishlarida urug' va qabilalarga bo'linish prinsiplarini saqlab qolgan edi [7, B.17].

Farg'ona vodiysining tabiiy sharoiti ekstensiv chorvachilikning rivojini ham ta'minlab berdi. Yozda Farg'ona vodiysini o'rab turgan tog' tizmalari tomon chorvador aholi o'z chorvalarini haydagan bo'lsalar, qishda cho'l zonalar ularning chorvalari uchun yaylov sifatida xizmat qilgan. Albatta, yaylov chorvachiligi bilan XIX asr oxirlarida u yoki bu holatda vodiyning yarim o'troq (yarim ko'chmanchi) aholisi shug'ullanar edi. Tadqiqotlarda e'tirof etishicha, ushbu tarixiy-etnografik hududda yashab turgan azaliy chorvador aholi ham o'z o'rnida turgan o'zbek, tojik aholining chorvachilik xo'jaligi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [8, B.48].

Farg'onalik qirg'iz, qipchoq, turk, qurama, yuz va qoraqalpoqlar kabi chorvador aholi bilan turgun aholi orasidagi alokalar chorvachilik sohasidagi o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Vodiyda Oloy va Arna vodiysi eng yaxshi yozgi yaylov hisoblangan. To'g'ri, ular Farg'ona vodiysi chegarasidan tashqarida bo'lsa-da, qadimgi davrlardan oq iqtisodiy tizginlar asosida bevosita bir-biri bilan bog'liq edi. Yaylovlar ham dehqonchilik zonalari kabi etnomuloqot vositasi bo'lib xizmat qildi. Chunki bunda vodiyning ko'plab etnik jamoalari qirg'iz, qipchoq, turk, qurama, yuz, qoraqalpoq hamda o'troq o'zbek va tojiklar o'z chorvalarini boqqanlar.

Namangan viloyati Chust tumani Varzik qishlog'ida yashovchi qipchoqlar tojiklar bilan yonma-yon yashaganlar. Bu yerlik qipchoqlar asosan, chorvachilik bilan shug'ullanganliklari sababli, ularning turmushida dehqonchilik unchalik ahamiyat kasb etmagan. Shuning uchun ham ular xo'jaligini yarimko'chmanchi *tog'-yaylov chorvachiligi* deb atash mumkin. Chunki, bahor kelishi bilan oila a'zolarining barchasi tog' yaylovlariga ko'chib ketganlar. Ularning ovullarida esa yozgi mavsumda faqat katta yoshli kishilargina qolganlar.

Odatda, chorvador aholi o'zlari uchun *qishlov* joylari sifatida shamoldan himoya qilib turuvchi qoyalar bilan o'ralgan tog' daralari yoki qish faslida ham chorvani boqib turish imkoniyati bo'lgan tog'oldi hududlari hamda hali dehqonchilik uchun o'zlashtirib ulgurilmagan vodiylar tekislik qismining o'tzor hududlarini tanlaganlar. Masalan, Farg'ona vodiysi qipchoqlarining qishlov makonlari Qurama va Chotqol tog' tizmalarining janubiy va janubi-sharqiy yonbag'irlarida hamda Farg'ona tog' tizmasi etaklarining janubi-g'arbiy qismida joylashgan edi [9, B.22].

Tadqiqotchi A. Sarimsokovning ta'kidlashicha, Farg'ona vodiysi qipchoqlari xo'jaligida bahorgi taqvimiy marosimlar muhim o'rin tutgan. Farg'ona vodiysidagi qipchoq chorvadorlari qishlovlardan tog'lardagi bahorgi va yozgi yaylovlarga ko'chib chiqishni "cho'rchikal" deb nomlanuvchi qush uchib kelgandan keyingina boshlaganlar. Cho'ponlar: "cho'rchikal kelsa, qaytpas qora yil keladi!", ya'ni "yoz boshlandi, endi sovuq bo'lmaydi",- deydilar. Haqiqatdan ham bu qushlarning uchib kelish vaqti aprel oyiga to'g'ri kelib, kunlar ancha isib, tog'larning pastroq qismidagi yaylovlarga ko'chish mumkin. Asosiy yozgi yaylovlarga esa may oxirlarida borilgan [10, B.72].

Namangan viloyati Chust tumani chorvadorlari esa qo'radan chiqaverishda ikki joyga katta olov yoqishib, suruvni ularning orasidan olib o'tganlar. Shuningdek, chorvadorlar har yili tog' yaylovlariga ketishdan oldin va yetib borilgandan so'ng ham chorvachilik homiylari bo'lgan - Cho'pon ota, Chechan ota va Zangi otaga bag'ishlab qurbonlik qiladilar va ulardan chorvani har xil balo-qazolardan asrashini, tuyoqlar soni ko'payib, yaxshi et olib semirishini so'raydilar. Marosimlarda maxsus "Chorvachilik risolasi" o'qilgan [11, B.81].

Qipchoqlar xo'jaligida chorvachilik bilan birga hunarmandchilik qisman bo'lsa-da, o'z o'rniga ega bo'lgan. Farg'ona vodiysi qipchoqlari tomonidan ham uy sharoitida tayyorlangan bir necha xildagi jun va ip-gazlama mahsulotlari, xususan bo'g'joma, xurjin, qop-arqon va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari, chekmon va shalvar kabi kiyimlar hamda ozroq miqdorda gilam va kiygizlar bozorga olib chiqib sotilgan. Ayniqsa, qipchoqlarning gul solingan kiygizlari mahalliy bozorda xaridorgir bo'lgan [12, B.136-157].

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Farg'ona qipchoqlari turmush tarzi va xo'jalik-siyosiy munosabatlarda o'troq bo'lgan o'zbeklar hamda tojiklarga nisbatan qirg'izlarga yaqinroq turgan. Qipchoqlarning etnik va xo'jalik turmushi jihatidan o'ziga xosliklarini o'zbeklar hamda turkiy tilli aholidan alohida, lokal xususiyatlariga ega edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Чебоксаров Н. Н. Хозяйственно-культурные типы и историко-этнографические области // СЭ. - 1985. - №4. - С. 3-17.
2. Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. - Б. 27.
3. Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX - начале XX в. - Ташкент, 1991. - С. 4.
4. Шаниязов К. Ш. Кипчаки в узбекской этнической среде в дооктябрьский период (Процессы интеграции) / Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. - М., 1980. - С. 139.
5. Вахобов Б. М. Фарғона водийсида анъанавий этноинтеграцион жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. - Термиз, 2023. - Б. 50.
6. Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар.... - Б. 16.
7. Yuqoridagi asar... - В. 17.
8. Yuqoridagi asar.... - В. 48.
9. Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. - Казань, 1886. - С. 22.
10. Саримсоков А. А. Ўзбекларнинг тақвимий маросимлари (Фарғона водийси материаллари асосида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертация. - Тошкент, 2010. - Б. 72.
11. Саримсоков А. А. Шимолий Фарғона кипчоқларининг тақвимий маросимлари / Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. Республика илмий анжумани материаллари. - Наманган, 2007. - Б. 81.
12. Шаниязов К. Ш. Кипчаки в узбекской этнической среде в дооктябрьский период. (Прогрессы интеграция) / Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. - М., 1980. - С. 136-157.